



Orasta YULDASHEVA,

Toshkent amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi

E-mail: yuldashevaorasta@gmail.com

PhD M.Xomidova taqrizi asosida

STUDY OF PROVERBS IN ETHNOLINGUISTICS

Annotation

Interest in the relationship between language and culture in world and Uzbek linguistics is increasing day by day. By the end of the 20th century, new fields of linguistics such as ethnolinguistics and linguoculturology appeared. In these areas, the connection between language and culture, the expression of the national and cultural identity of the "national spirit" and the sum of ethnocultural information are considered. The names of customs, clothes and national dishes used in Uzbek folk proverbs have become one of the objects of study of ethnolinguistics. In our linguistics, ethnolinguistic research of proverbs, which are considered artistic expression of national values, traditions and rituals, is one of the urgent issues on today's agenda.

Key words: ethnolinguistics, linguistics, ethnic unity, ethnics, culture.

ИЗУЧЕНИЕ ПОСЛОВИЦ В ЭТНОЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

Интерес к взаимосвязи языка и культуры в мировом и узбекском языкоznании возрастает с каждым днем. К концу 20 века появились новые области языкоznания, такие как этнолингвистика и лингвокультурология. В этих сферах рассматриваются связь языка и культуры, выражение национально-культурного своеобразия «национального духа» и сумма этнокультурной информации. Названия обычая, одежды и национальных блюд, используемые в узбекских народных пословицах, стали одним из объектов изучения этнолингвистики. В нашей лингвистике этнолингвистическое исследование пословиц, которые считаются художественным выражением национальных ценностей, традиций и обрядов, является одним из актуальных вопросов современной повестки дня.

Ключевые слова: этнолингвистика, языкоznание, этническое единство, этнос, культура.

ETNOLINGVISTIKADA MAQOLLARNING O'RGANILISHI

Annotatsiya

Jahon va o'zbek tilshunosligida hozirgi kunda til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro munosabatga qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. XX asr oxirlariga kelib tilshunoslikning yangi etnolingvistika va lingvokulturologiya kabi sohalari paydo bo'ldi. Bu sohalarda til va madaniyat aloqasi, "milliy ruh"ning milliy hamda madaniy o'ziga xoslik ifodasi, etnomadaniy ma'lumotlarning yig'indisi sifatida ko'rib chiqiladi. O'zbek xalq maqollarida qo'llanilgan urf-odat, kiyim-kechak va milliy taom nomlari etnolingvistikating o'rghanish obyektlaridan biriga aylandi. Tilshunosligimizda milliy qadriyat, an'ana va marosimlarning badiiy ifodasi hisoblanadigan maqollarni etnolingvistik yo'nalishda tadqiq etish bugungi kun tartibida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: etnolingvistika, lingvistika, etnik birlilik, etnos, madaniyat.

Kirish. Dunyo tilshunosligida lingvokulturologiya, psixolingvistika, etnolingvistika, semantika, matnshunoslik masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'lami kengaymoqda. Etnolingvistikating muhim tamoyillaridan biri til birliklarini etnos bilan bog'lagan holda tahlil hamda tadqiq qilishdir. Tilshunoslikda mayjud til birliklari har bir millat madaniyatini namoyon qiluvchi tushunchalar ifodasidir. Etnolingvistikating muhim vazifasi tilda uchraydigan til birliklarni ajratish, anglash darajasini aniqlash, ma'no jihatdan o'rghanilayotgan tilning madaniyati, etnosti bilan bog'liq holda tadqiq qilishdir. Har bir xalqning maqollarida xalq etnosti hamda madaniyati aks etadi. O'zbek xalq maqollarini etnolingvistik tahlil jarayonida ham o'zbek xalqiga xos birliklar hamda o'zbek xalqiga xos bo'lgan madaniyat o'z ifosadini topadi. "O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miyosdag'i obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarqa sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash" [1] eng muhim masalalardan biri sifatida belgilangan ekan, bu maqollarning etnolingvistik xususiyatlarini tadqiq etish muhimligini yana bir karra isbotlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tilshunoslikning tarkibiy qismi sifatida XX asr boshlarida fanga kirib kelgan etnolingvistika F.Boas va E.Sapir nomlari bilan bog'liq bo'lib, Eduard Sapir amerikalik hindlarning yozma an'ana va va madaniyatidan mahrum bo'lgan tillarni o'rgangan. Eduard Sapir etnolingvistika va tilshunoslikni o'zaro bog'liq tamoniga alohida to'xtalib: "Til – jamoaning sof tarixiy merosi, uzoq muddatli

ijtimoiy foydalanish mahsulidir, unda xalqning etnik mahsuli hisoblanmish urf-odatlari, san'ati yotadi" degan fikrni ilgari suradi [2]. Etnolingvistika – tilshunoslik va etnografiya chorrasasida joylashgan fandir. U etnos va til o'rtasidagi munosabati barcha xilma-xilligi bilan o'rghanib, tilshunoslikning til va ma'naviy madaniyat, til va xalq mentaliteti, til va xalq amaliy san'ati o'rtasidagi munosabat va bog'liqligini ifodalaydi.

I.G.Gerder etnolingvistikada ikkita yo'nalish: diaxron etnolingvistika va sinxron etnolingvistika mavjudligini ta'kidlaydi.

Diaxron etnolingvistika – xalqlarning uzoq o'tmishini, moddiy hamda ma'naviy madaniyati tarixini etnik va lingvistik bog'liqlikda tadqiq etadi.

Sinxron etnolingvistika – hozirgi milliy va ijtimoiy muammolarni til va madaniyat aloqadorligida ko'rib chiqadi [3].

Olimlarning fikriga ko'ra, etnolingvistikating maqsadi etnos dunyoqarashini, qadriyatlar tizimini, dunyoning an'anaviy tasvirini semantik qayta qurishdir.

Etnos kelib chiqish, tarix, moddiy va ruhiy madaniyat, til, ong umumiyligi asosida vujudga kelgan birlik hisoblanadi. Lingvistika esa tilshunoslik demakdir. Shu ma'noda etnolingvistika etnosning til xususiyatlarini tadqiq etadi [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Har bir xalqning o'z an'ana va milliy qadriyatlariga xos bo'lgan bir qancha urf-odat va milliy marosimlari mavjud. Har bir xalqning milliy o'ziga xosligini maqollar yaqqol aks ettiradi. Maqollarning shakllanish tarixi ham turlicha. Avvalo, adabiyotshunoslik va etnografiya, keyinchalik tilshunoslik, so'ngra xususiy soha – uslubshunoslikda tavsifiy

asoslarda o'rganilgan maqollarning til va adabiyot kesimidagi tadqiqi bo'yicha bugungi kunda katta hajmdagi ishlar ko'lami vujudga keldi. Hozirgi kunda esa ular asos vazifasini bajarmoqda. Tilshunoslikda yangi paradigmang shakllanishi ham maqollarning kengroq o'rganilishiga sabab bo'lmoqda. Xalqning hayot tajribasidan kelib chiqadigan xulosalarining badiiy ifodasi maqollardir. Maishiy hayotimizda, badiiy va ilmiy asarlarda, publisistika, siyosiy va ilmiy adabiyotlarda juda ko'p qo'llangan, hozirda ham qo'llanib kelinmoqda. Maqollar turg'un birikmaldir. Ular tilimizda qoliplashgan holda namoyon bo'ladi. Maqollardagi so'zlarni boshqasi bilan almashtirish, biror so'zni qo'shib yoki o'rniqa boshqa bir so'zni qo'llab bo'lmaydi. Maqollar – milliy mentalitet, madaniyat, ramz va o'xshatishlarning ko'zgusi. Maqollarni etnolingvistikada o'rganishning ahamiyati shundaki, maqollar muayyan xalq, davlat yoki aynan bir davrga xos hisoblanadi. Ularning o'ziga xosligi shundaki, ularda xalqning hayot tajribalari, olam haqidagi tasavvurlari bilan bir qatorda til egalarining o'ziga xos obrzali tafakkuri ham aks etadi.

Tahhil va natijalar. Har bir xalqning maqollari o'sha xalqning ensiklopediyasidir, chunki ularda hayotimizning har bir qirrasi aks etgan bo'ladi. Maqollardagi urf-odat, milliy marosimlar va diniy marosimlar yoki kiyim-kechak nomalari har bir xalqning milliy o'ziga xosligini ko'rsatadi. Masalan, guppung qalin bo'lsa ham qishdan qo'rqi, do'pping qalin bo'lsa ham mushtdan qo'rqi maqolidagi do'ppi va guppi bosh va ust kiyim nomlari kulturema sifatida ishtirot etgan.

1. Do'ppi – Avra-astarli, ko'pincha qavima, pilta urilgan, tepa, kizak va jiyakdan tarkib topadigan guldor yoki gulsiz, to'garak yoki to'rtburchak shakldagi bosh kiyimi [5].

Do'ppi – yengil bosh kiyim. Qadimdan eron va turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan. Turkiston xalqlari orasida (ayniqsa, O'zbekiston va Tojikiston hududida) milliy kiyim turiga aylangan. Boshqa xalqlar do'ppilaridan o'zbek do'ppilarilar o'ziga xos shakli, bezagi bilan farqlanadi. Do'ppi uch qismidan iborat — tepa (aylana va to'rtburchak shaklida bichiladi), kizak (gardish shaklida) va jiyakdan tuzilgan, respublikaning turli joylarida turlicha bezatiladi; qismlari birlashtirilganda turlicha ko'rinishga ega bo'ladi [6].

Do'ppi – hozirgi o'zbek tili va turkiy tillarning ayrimlarida quyidagicha fonetik va leksik variantlarda uchraydi: Farg'ona vodiysida do'ppi; Toshkent shevasida to'ppi; Buxoro tojiklari va ikki tilli (o'zbekcha va tojikcha so'zlashuvchi) aholi tilida kallapo'sh // kalavush, Pastdarg'om, Shaxrisabz, Kitob, Samarcanda qalpoq, qalpog'. Ammo bu joylarda har xil rangli chit yoki satindan iroqi usulda cho'ziqroq shaklda tikilgan va salsa tagidan kiyiladigan do'ppi turi ham kallapo'sh //kalapo'sh deb yuritiladi... Qadimiy yozma manbalarda do'ppi (to'ppi) so'zları uchramaydi. Tarixda arabcha "маҳъ // мақъ", forscha "калпапӯш", turkcha "калпок" so'zları bor. Tatar, no'g'oylarda "мақъя", marvaridlar qadab tikiladigan turini "калфак", qozoqlarda – "допы, мақия", turkmanlarda – "махъ", tojiklarda – "маки, калапӯш" va hokazo. Do'ppining xillari ko'p. Uning "аракчин" deb nomlangan turi papak, kulokchin, bürk, kalpok astarini kirlatib qo'ymaslik maqsadida salsa tagidan kiyiladi. Yoz uchun surpdan, qish uchun esa tuyu junidan to'qilgan matodan tikiladi. Do'ppining bu turini Buxoro tojiklari shaptpӯsh (shabkecha, püş< püşidan-berkitmok, ётмол) deyishadi [7].

Do'ppi O'rtal Osiyo xalqlari, jumladan O'zbekiston va Tojikiston hududining milliy bosh kiyimi hisoblanadi hamda o'zbek va tojik xalqlarining milliy lingvokodidir. Y.Nurova do'ppi lingvokulturemasining qalpoq varianti etnolingvistik birlik sifatida qo'llanganligini ilmiy ishida keltiradi.

2. Guppi – qalin paxtali kalta chopon. Adolat onasi keltirgan qora duxoba guppisini kiyib ... olgan edi (Saïda Zunnunova). Bu ot asli "дүмбай" ma'nosini anglatgan kön felidan -i qo'shimchasi bilan yasalgan; qo'shimcha qo'shilganidan keyin

n undoshi qatlangan; keyinchalik so'z boshlanishidagi k undoshi r undoshiga, ö unlisi ý unlisiga almashgan; o'zbek tilida ý unlising yumshoqlik belgisi yo'qolgan: kön- +i > köppi > röppi >yüppi> гуппи [8].

Guppi paxtali qaljin ust kiyimi qozoq, qoraqalpoq va o'zbek xalqlarining qishgi ust kiyimi hisoblanadi. Hozirgi kunda ham respublikamizning turli hududlarida guppi kiyishadi. Asosan, qishning sovuq kunlarida tashqarida ishlaydiganlar hamda cho'ponlar kiyishadi.

Xo'janing qizi erga tekkuncha, tuyaning dumi yerga tegadi kinoya mazmunli ushbu maqolda xo'ja antropomorf kod vazifasini bajargan.

Xo'ja – bu ot forscha-ruscha lug'atda "ходже", tojikcha-ruscha lug'atda "разз" ta'kidi bilan "хўча" shaklida keltirilib, "хўча" shakliga havola berilgan; o'zbek tiliga tojikcha xўжа shakli olingan; asli "biror kimsaning, narsaning egasi", "otxona boshlig'i" ma'nolarini anglatadi; "Muhammad payg'ambarning, to'rt xalifadan birining avlodni", "oqsuyak va uning avlodni" kabi ma'nolar keyinchalik yuzaga kelgan [9].

Akademik Yahyo G'ulomovning yozishicha: "Xo'jalar jamiyatning oqsuyak va imtiyozli tabaqasi bo'lgani uchun oddiy fuqarolar xo'ja qizlariga uylanish huquqiga ega emas edi [10]. Xo'jalar o'zlarini jamiyatning oqsuyak qatlami deb bilgan va oddiy aholidan kelgan sovchilarga qiz berishmagan. Lekin o'zlar oddiy aholining qizlariga uylanishgan, ammo qizlarini faqat xo'jalarga uzatish odatga aylangan. Shuning uchun ham xo'jalarning qizlarida "qariqiz" bo'lib qolish ko'p kuzatilgan. Oddiy aholi esa bu holat ustidan quyidagi maqol bilan ham kulgan: xo'jadan qiz olish – patirdan qil olish. Bu maqolda patir so'zi predmetli kod vazifasini bajargan. Har bir davlatning noni bor, shakli, mazasi bir-biridan farq qilsa ham, lekin patir faqat o'zbeklarga xos bo'lgan non turi. Patir nondan qattiq bo'lgani uchun undan qolib ketgan narsani olish birmuncha qiyin, qilni olishning esa, umuman, iloji yo'q. Ushbu maqolda patir milliy realiyasi ishtirot etgan.

Aslini bilmay so'z demaslar, naslini bilmay qiz bermaslar sovchilik odati asosida shakllangan ushbu maqolda aslini bilmay va naslini bilmay so'z birikmali – madaniy kod hisoblanadi. O'zbek millatiga xos bo'lgan odatlardan biri – sovchilik. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'oti-t-turk" asarida "sav" atamasi keltirilgan va uning xabar bermoq ma'nosini borligi qayd qilingan. Shu ma'lumotlarga tayanib, "sovchi" so'zi milliy tilimizda eng qadimiy so'zlardan biri emasmikin, degan fikrga borish mumkin [11]. "Devon"da keltirilishicha, sovchi so'zi kuyov bilan kelin orasida xat bilan yuruvchi elchi [12] degan ma'noni anglatib, asl kelib chiqishi o'g'uzcha hisoblangan. Bu so'zning kelib chiqishi qadimgi turkiy tilda "nutq, xabar" ma'nosini anglatgan sav otidan kelib chiqqanligi va -chi qo'shimchasini qo'shish orqali yasalganligiga guvoh bo'lamiz. Bundan ko'rindaniki, sovchi so'zi ham asl turkiy so'z, hamda u o'zida elchilik semasini saqlab qolgan holda "kuyov tomonidan qiz tomonning roziligini olish uchun vakil qilingan shaxs" deb kengaygan ma'noni ifodalaydi. Sovchilar bo'lajak kelining oilasiga kuyov haqida, uning shu qizga uylanish niyati borligi haqida xabar beruvchi, kuyov tomonidan tayinlangan vakillardir. Kuyovga esa kelinning rozi yoki rozi emasligi haqida xabar beruvchi elchi hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Til har bir xalqning madaniyati, ma'naviyati, millat ruhiyatining oynasidir. Madaniyat, urf-odat va marosimlar, milliy qadriyatlar esa maqollarda yaqqol aks etadi. O'zbek xalq maqollarining shakllanish tarixi va ulardagagi etnolingvistik birliklар xalqning o'ziga xosligini, turmush tarzini, ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti haqida ma'lumot beruvchi muhim birlilik hisoblanadi. Maqollardagi etnolingvistik birliklarni aniqlash ajododdilarimizning turmush tarzi, har bir xalqning o'ziga xos bo'lgan olamning lisoniy manzarasini anglashda muhim manba hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M.Mirziyoyevning "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF- 6084-son Farmoni.
- Толстой Н. И. Этнолингвистика в кругу гуманитарных дисциплин. (Толстой Н. И.) Язык и народная культура. Очерки по славянской мифологии и этнолингвистике. – М., 1995. – С. 27-40. <http://www.philology.ru/linguistics1/tolstoy-95a.htm>.

3. Сыдыков А.Н. Этнолингвистическая специфика лексики кыргызского и русского языков. Диссертация на соискание учёной степени доктора филологических наук. Бишкек, 2013. - 299 с.
4. Nurova Y. O'zbek xalq paremalarida kiyim va oziq-ovqat nomlarining etnolingvistik tadqiqi. Monografiya. Buxoro., 2022. – 114 b.
5. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдлик. Бешинчи жилд. – Т., Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – 592 б.
6. <https://meros.uz/object/doppi>
7. Асомиддинова М. Кийим-кечак номлари. – Т.: Фан. 1981. – 116 б.
8. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати (туркий сўзлар). 1 жилд. – Тошкент, Университет. 2000. – 600 б.
9. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик лугати (форсча, тожикча бирликлар ва улар билан хосилалар). 3 жилд. – Тошкент, Университет., 2009. – 283 б.
10. Фуломов Й. “Хўжа” сўзи қаердан келиб чиқкан?. Фан ва турмуш, 1970., 1-сон.
11. Madaev O. “O'zbek xalq og'zaki ijodi” o'quv qo'llanma. -Toshkent: “Mumtoz SO'Z”, 2010. - 230 b.
12. Махмуд ибн Ҳусайн ибн Мухаммад Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луготи-т-турк) [3 жилдлик]. Нашрга тайёрловчилар: А.Рустамов, Ҳ.Болтабоев. —Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2016. —388 б.